

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich
Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası professori,
pedagogika fanları doktori (DSc)
a.r.hamroev@buxdu.uz

O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish amaliyotini asoslash, uning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash uchun pedagogik tajriba predmeti, maqsadi, vazifalarini aniqlash, natijalarini tahlil qilishga doir fikr bayon etilgan. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning asosiy maqsadi ta'lim samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashdan iborat.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish zarurati ona tilini o'qitish orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlash malakasiga ega shaxsni tarbiyalash vazifasidan kelib chiqadi.

Kalit so'zlar: ona tili, boshlang'ich sinf, ijodiy ta'lim, ijodiylik, ijodiy faoliyat, loyiha, loyihalashtirish, tafakkur, ta'lim jarayoni, samaradorlik, pedagogik tajriba, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, davlat ta'lim standarti, o'quvchi.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье раскрывается идея определения предмета, цели, функций педагогического опыта, анализа полученных результатов с целью обоснования практики проектирования творческой деятельности студентов в процессе обучения родному языку, описания ее специфических особенностей. Основной целью проектирования творческой деятельности студентов в процессе обучения родному языку является повышение эффективности и качества образования.

Необходимость проектирования творческой деятельности студентов в области образования на родном языке вытекает из задачи воспитания личности с навыками самостоятельного мышления студентов через обучение родному языку.

Ключевые слова: родной язык, начальный класс, творческое образование, творчество, творческая деятельность, проект, дизайн, мысль, образовательный процесс, эффект, педагогический опыт, организация, управление, контроль, государственный образовательный стандарт, читатель.

DESIGNING STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES

Annotation. The article reveals the idea of defining the subject, villages, functions of pedagogical experience, analyzing the results obtained in order to substantiate the practice of designing students' creative activity in the process of teaching their native language, and describing its specific features. The main purpose of designing students' creative activity in the process of teaching their native language is to increase the effectiveness and quality of education.

The necessity of designing students' creative activity in the field of education in their native language follows from the task of educating a personality with independent thinking skills of students through teaching their native language.

Keywords: native language, elementary school, creative education, creativity, creative activity, project, design, thought, educational process, effect, pedagogical experience, organization, management, control, state educational standard, reader.

Izohli-ko'rgazmali ta'lim eng ko'p qo'llaniladigan ta'lim turi bo'lib, qator afzalliklarga ega. Biroq ushbu ta'limning xotiraga mo'ljallanganligi, o'quvchilarning o'quv-tarbiya jarayonidagi sust ishtiroki, teskari aloqaning umumiy xarakteri kabilar izohli-ko'rgazmali ta'limning kamchiliklarini ko'rsatadi. Bu kamchiliklarni bartaraf etishda ijodiy ta'lim imkoniyatlari nihoyatda katta. Ijodiy ta'limning o'ziga xos jihatlari bor: ta'lim mazmunining didaktik ishlov berilganligi, o'quv-tarbiya jarayonining ham xotiraga, ham tafakkurga mo'ljallanganligi, o'quvchilar o'zlashtirishining individualligi, ta'limda o'quvchilar faolligi kabi xususiyatlar ijodiy ta'limning o'zigagina xos sifatlardir. Ularga rioya qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga olib keladi. Ana shularga ko'ra ijodiy ta'lim sharoitida o'quv ishlarining samaradorligini oshirish pedagogik tajriba predmeti sifatida belgilandi.

Didakt va metodistlar ta'lim jarayonining samaradorligi deb o'quv-tarbiya jarayonida qo'yilgan maqsad va erishilgan natija o'rtasidagi farqni izohlaydilar. Ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad va erishilgan natija o'rtasidagi tafovut qancha kam bo'lsa, ta'lim shuncha samarador sanaladi.

Samaradorlikning sifat ko'rsatgichlari bilim va faoliyat usullarini egallashga ko'ra aniqlanadi. Miqdor ko'rsatgichlari esa ta'lim maqsadi va o'quvchilar erishgan bilim, ko'nikma, malakalar orasidagi farqqa ko'ra aniqlanadi. Samaradorlikni oshirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sinovdan o'tkaziladi: ta'lim sifati (o'quvchilar bilimining ko'lamini, umumlashtirishlar darajasi, bilimlarni ishlab chiqarishga tatbiq eta olish, bilim va malakalardan zarurat tug'ilganda foydalana bilish)ni yaxshilash; ta'lim natijasining qo'yilgan maqsad (bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasini Davlat ta'lim standartlari darajasida va undan yuqori darajada o'zlashtirish)ga yaqinlashtirish; ta'lim vositalarining ta'lim-tarbiya jarayoni mohiyatiga mosligini ta'minlash; vaqt byudjetini oqilona taqsimlash.

Qayd qilingan yo'nalishlar pedagogik tajriba maqsadini aniqlashni ma'lum darajada osonlashtiradi: ijodiy ta'limni ilmiy asoslangan loyihalashtirish vositalari negizida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning samaradorlik darajasini didaktik jihatdan belgilash pedagogik tajribaning maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik tajriba predmeti, maqsadini nazarda tutib quyidagilarni pedagogik-metodik jihatdan hal qilishni tajriba vazifalari deb belgiladik.

I. Pedagogik tajribapredmetini aniqlash, maqsadini rasmiylashtirish. Ijodiy ta'limning samaradorlik darajasini o'rganish, ta'lim samaradorligini oshirishga yo'nalgan omillarni tahlil qilish yo'li bilan samaradorlik aniqlanib, tadqiqot maqsadi shakllantirildi.

II. Ijodiy ta'lim munosabati bilan boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini o'qitish tizimiga kiritilgan yangiliklarni tavsiflash. Ona tili ta'limini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish shart-sharoitlari yangilandi, ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga yaroqli loyihalash konsepsiyasi yaratildi.

III. Pedagogik tajribasamaradorligini o'rganish va tavsiflash uchun ijodiy ta'limni izohli-ko'rgazmali ta'limga taqqoslash shakllarini qayd qilish. Bu vazifani sifatli hal etish maqsadida o'qituvchilar izohli-ko'rgazmali va ijodiy ta'limga oid dars qurilishi bilan tanishtirildi, ularga tegishli tavsiyalar berildi.

IV. Ijodiy ta'lim sharoitida o'quvchilarda yuz beradigan individual o'zgarishlarni izchil qayd etish. Bu maqsadda o'quvchilarni individual kuzatish rejasi ishlab chiqildi. Unda o'quvchilar tomonidan o'quv materialiga oid axborotlarni qabul qilishdagi aniqlik; topshiriqlarni aniq, to'liq, diqqat bilan bajarish; bilishga qiziqish, topshiriqlarni mustaqil belgilash kabi xususiyatlar qayd etildi.

V. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning samaradorlik bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganish. Dasturning samaradorligi u nima maqsadda foydalanilishidan tortib loyihalash jarayonigacha bo'lgan elementlarga bog'liq bo'lib, uni bir mezon bilan baholash qiyin. Shunday bo'lsa-da, ona tili ta'limini loyihalashtirish dars samaradorligining asosiy xususiyati sifatida qaraladi. Loyihalashtirishning ishonchligi deganda undagi xatolarning bartaraf qilinganlik darajasi tushuniladi.

Har bir darsning loyihasi va uning bajarilishidagi shartlar aniq belgilangan bo'lishi lozim. Pedagogik tajriba jarayonidagi bu xususiyatlarning dars samaradorligiga ta'siri ham o'rganildi.

VI. Tahlil qilish uchun natijalarni to'plash. Pedagogik tajriba natijalarini sonlar vositasida qayd etish va statistik metodlar asosida qayta ishlash qo'llaniladigan uslubiyatlarning farqliligini va birining ikkinchisidan ustunligini ko'rsatuvchi usuldir.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning psixologik, pedagogik, metodik asoslarini o'rganish, loyihalashtirishning xususiyatlari bilan bog'liq xususiy muammolarni echish yo'llarini izlashdan iborat. Buning uchun ishni ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish asosida darslarni tashkil qilish o'quvchilar bilim saviyasini oshiradimi yoki pasaytiradimi degan savolga javob izlashdan boshladik. Shu maqsadda to'rtta umumiy o'rta ta'lim maktabini tanlab, tajriba uchun ajratilgan har bir sinfda 5 tadan dars kuzatildi.

Darslar odatdagi o'qitilayotgan sinflarda tashkil qilinganda, o'quvchilar ta'limda sust ishtirok etishdi, har bir mashg'ulotda 2-3 ta mashq bajarishgagina ulgurishdi, xolos. O'quvchilarning aksariyati darsda "kuzatuvchi"dek qatnashdi. Qolgan o'quvchilarning ham o'qituvchi savollariga bergan javoblaridan ularning o'quv materialini to'liq o'zlashtirmaganliklari aniqlandi. Darsda o'quvchilar bilimni baholash ham qisman amalga oshirildi va baholash odilona bo'lmadi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish vositasida ma'lum tayyorgarlik loyiha asosida tashkil qilingan darslarda o'quvchilar faolligi kuzatildi. O'quvchilar bir darsda 4-5 ta mashq bajarishga ulgurdilar va ularning o'qituvchi savollariga javoblari ham asosli bo'ldi. O'quvchilarning baholanish darajasi oshdi. Darsda o'quvchilarni faollashtirishga mo'ljallangan loyihalardan foydalanilganda esa sinf o'quvchilarining bilimni to'liq va haqqoniy baholashga erishildi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosining maktab amaliyotidagi ahvoli tahlil qilinadi. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish tajribasini tizim sifatida qarab, ijodiy ta'lim amaliyoti xususiyatlarini ajratishga, maktab o'qituvchilarining ijodiy ta'lim to'g'risidagi fikrlarini qayd etishga harakat qilamiz. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish amaliyotining real ahvoli va o'qituvchilarning o'z fikrlarini bir-biri bilan taqqoslab ijodiy ta'limning kuchli hamda zaif tomonlarini ajratamiz.

1. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish tajribasi. Ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish bo'yicha mavjud tajribani o'rganish va umumlashtirish maqsadida ilg'or o'qituvchilarning darslari kuzatilib, yozib olindi. Darslarni kuzatish va qayd etish jarayonlarida quyidagi savollarga javob izlandi: a) ijodiy ta'limning maqsadi bilan daxldor savollar-ta'limni ijodiy tashkil etishning maqsad, vazifalari, tanlangan o'quv topshiriqlarining ijodiy ta'lim maqsadi, vazifalariga mosligi; b) ijodiy ta'lim mazmuni bilan daxldor savollar-ijodiy o'quv topshiriqlarining mazmuni nimalarga ko'ra aniqlanadi, ijodiy topshiriqlarning o'quv materiali mazmuniga mosligi, o'qituvchilarning real o'quv imkoniyatlariga muvofiqligi, u yoki bu ijodiy ishning o'quv topshiriqlari tizimidagi o'rni; v) ijodiy ta'limning jarayoniy xususiyatlari bilan aloqador savollar-ijodiy topshiriqlarning dars turi, bosqichlariga mosligi, ijodiy ta'limda o'qituvchilarning real o'quv imkoniyatlari, ishlash tempi bilan bog'liqligi, ijodiy ishlarni bajarishda foydalaniladigan usullar, ijodiy topshiriqlarni bajarishda oldin o'rganilgan bilim va faoliyat usullarini qo'llash, yangi bilim va faoliyat usullarini qayd qilish vositalari; g) ijodiy ishning natijasi bilan daxldor savollar-u yoki bu ijodiy ishning o'quvchilar uchun ahamiyati, o'quv topshiriqlarining o'quv materiali mazmunini to'liq o'zlashtirish talablariga etarligi, ijodiy ishlarning o'qituvchilarda mustaqil faoliyatni shakllantirishdagi roli va sh.k.

Darsning ikkinchi bosqichi-yangi bilim va faoliyat usullarini idrok etish bosqichida ham o'quvchilarning ijodiy izlanishlarini o'tkazish imkoniyatlari bisyor topiladi: oldin o'rganilgan mavzuga va endi o'rganilayotgan mavzuga oid dalillarni o'zaro taqqoslash, mavzuga oid dalillarni kuzatish, kuzatilgan dalillardan xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosani darslikda berilgan ta'rif, qoidaga taqqoslash. Bu ko'rinishdagi o'quv yumushlari o'qituvchilarning ijodiy mustaqil

faoliyatini ta'minlaydi. Xuddi shunga o'xshab, mavzu o'rganilgach, uni mustahkamlash bosqichida ham turli-tuman ijodiy ishlarni o'tkazsa bo'ladi. Bunday ko'rinishdagi ijodiy ishlar sirasiga o'rganilgan ta'rif, qoidalarni yangi dalillarga ko'chirish, ta'rif, qoidalarni yangi o'quv holatiga tatbiq qilish kabi ijodiy ishlar kiradi. Bulardan ayon bo'ladiki, dars turlarining har birida o'qituvchilarni ijodiy ishlarga jalb qilish imkoniyatlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularni metodik jihatdan to'g'ri belgilab olish dolzarb muammo sanaladi.

Ikkinchi dars turi-o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsida o'rganilgan mavzular bo'yicha malakalar takomillashtiriladi. Biz shu tipdagi darslardan 123 tasini yozib olganmiz. Kuzatilgan darslarda, asosan, darslik mashqlari ustida ish qilinadi. O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari o'qituvchilar xotirasiga mo'ljallangan bo'lib, ularda bilimlarni o'xshash sharoitlarga tatbiq qilish kabi o'quv yumushlariga ko'p vaqt ajratiladi. Bu o'z navbatida ijodiy topshiriqlarni ta'limga tatbiq etish uchun juda oz vaqt ajratishga olib kelmoqda. Kuzatilgan darslarda hammasi bo'lib, 103 marta ijodiy ish o'tkazilib, o'rtacha 5 minutdan vaqt sarflandi. Ijodiy ishlarning barchasi o'rganilgan bilimni berilgan holatlarga tatbiq qilish xarakterida edi.

Metodik adabiyotlarda o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarining uchta asosiy bosqichi ajratiladi: o'rganilgan bilim va faoliyat usullarini faollashtirish. Berilgan dalillarning qaysi ta'rif, qoidaga taalluqligini aniqlash, topshiriqni bajara turib, ta'rif, qoidalarni esga tushirish, qo'yilgan muammoning qaysi ta'rif, qoidaga ko'ra hal qilinishini belgilash va sh.k. Bunday o'quv holatlarida o'quvchilar bilim va faoliyat usullarini ongli, mustaqil faoliyat ko'rsatish yo'llari bilan esga tushirishadi. Kuzatilgan darslarda bu tipdagi ijodiy ishlar tashkil etiladi; o'rganilgan bilim va faoliyat usulini turli o'quv holatlariga tatbiq qilish. Biz kuzatgan 103 ijodiy topshiriq darsning ikkinchi bosqichiga-bilim va faoliyat usullarini berilgan holatlariga tatbiq qilish jarayoniga mos keladi; o'rganilgan ta'rif, qoidalar o'zlashtirilgan tushunchalarning yangi-yangi qirralarini aniqlash bosqichi. O'rganilgan ta'rif, qoida bo'yicha dalillarni kuzata turib, uning yangi xususiyatlarini ajratish, bilimlarni yangi axborotlar bilan boyitish didaktik izlanishlarda kumilyatsiya deb yuritiladi. Kumilyatsiya hodisasi-o'rganilgan bilim, faoliyat usullarini kengaytirish bilimlarni dastlabki o'rganishdan tortib, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida muttasil davom ettirilsa, ta'limni ijodiy o'tkazishning samaradorligi shunchalik oshadi. Kuzatilgan darslarda kumilyativ xarakterdagi o'quv topshiriqlari tashkil etilmadi. Tahlildan ma'lum bo'ladiki, ona tili darslarining ikkinchi turida-o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarida umumiy vaqt byudjetining atigi 13%i o'qituvchilarning ijodiy ishlarini tashkil etishga ajratiladi. Buni ma'lum darajada qanoatli deb topsa bo'ladi. Ammo ijodiy ishlarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasining bitta zaif tomonini aytib o'tishga to'g'ri keladi: o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarining zaif tomoni o'qituvchilarning ijodiy ishlarini dars bosqichlariga nisbatan nooptimal o'tkazishdir. Ilmiy-metodik tadqiqotlarda darsning har bir bosqichida, ta'lim jarayonining har bir halqasi, har bir davrida o'qituvchilarning ijodiy topshiriqlarini o'tkazish zarurligi uqtiliradi [1.B. 62].

Kuzatishlarimiz shuni tasdiqlaydiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars turlari, har bir dars turining o'ziga xos xususiyatlari, maqsad, vazifalarini aniq tasavvur qilisha olmaydi. Shu maqsadni ko'zda tutib, ona tili darslari turlari, har bir turining o'ziga xos xususiyatlari, maqsadi, vazifalari to'g'risida so'rovnoma tashkil etildi. So'rovnomada 50 nafar oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilari, 50 nafar boshlang'ich ta'lim usuliyoti fakultetining 4-kurs talabalari ishtirok etdi.

So'rovnomada 4 ta savol berilgan bo'lib, unda dars turlarining nomi ko'rsatilgan: birinchi dars turi bo'yicha so'rovnoma namunasi.

1. Ismingiz, familiyangiz.
2. Siz ishlaydigan maktab.
3. O'qituvchilik stajingiz.

4. Yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darsi bo'yicha tuzilgan savollarga javob qaytaring.

- A. Yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darsining asosiy maqsadi:
- B. Dars turining asosiy bosqichlarini ko'rsating.

V. Darsning asosiy bosqichlarida tashkil etiladigan ijodiy ishlarga namunalar keltiring.

G. Darsni ijodiy tashkil etish bo'yicha o'z fikringiz.

Bunday so'rovnoma barcha dars turlari bo'yicha tuzilgan bo'lib, so'rovnomadagi savollarga to'liq javob qaytargan o'qituvchi 10 ball to'playdi, bitta noto'g'ri javob uchun 2,5 ball yo'qotadi. So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchilar 4 ta guruhga ajratildi: 1-guruh oliy ma'lumotli o'qituvchilar; 2-guruh 4-kurs talabalari; 3-guruh-oliy ma'lumotli o'qituvchilar; 4-guruh-4-kurs talabalari. Har bir guruh ishtirokchilari ma'lum savollarga javob qaytarishdi. Masalan, 1-guruh oliy ma'lumotli o'qituvchilar 1-dars turiga oid savollarga 2-guruh 4-kurs talabalari 2-dars turiga doir savollarga, 3-guruh oliy ma'lumotli o'qituvchilar 3-dars turiga oid savollarga, 4-guruh 4-kurs talabalari 4-dars turiga doir savollarga javob qaytarishdi. Keyin so'rovnoma almashtirildi: 1-guruh 2-so'rovnoma, 2-guruh 1-so'rovnoma, 3-guruh 4-so'rovnoma, 4-guruh 3-so'rovnoma savollariga javob qaytarishdi. So'rovnoma savollari 3-va 4-marta almashtirilgach, ishtirokchilar barcha topshiriqlarni to'liq bajargan hisoblandi. Maktab o'qituvchilari va talabalarining bergan javoblarini o'zaro taqqoslash uchun 1-va 3-guruh, 2-va 4-guruh ishtirokchilarining javoblari o'zaro muqoyasa qilib o'rganildi. 1-va 3-guruh ishtirokchilari bergan javoblarning tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtining bitiruvchi kurs talabalari hamda oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars turlari, ularning maqsad va vazifalari to'g'risida sayoz tasavvurga egaligi aniqlandi. Talaba va o'qituvchilar har bir dars turining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning asosiy bosqichlarini belgilashda juda ko'p chalkashliklarga yo'l qo'yishi ma'lum bo'ldi. 100 nafar ishtirokchidan 15 kishi birinchi dars turining asosiy bosqichlarini to'g'ri ajratgan bo'lsa-da, dars bosqichlari bilan aloqadorlikda ijodiy ishlarni belgilashda chalkashlikka yo'l qo'ydi. Masalan, yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darsining asosiy bosqichlarini ajratib, ularda ijodiy o'quv topshiriqlarini ajratgan o'qituvchilar miqdori nihoyatda oz. O'qituvchilarning darslarini kuzatish yo'li bilan dalillar ($\approx 13,8\%$) bilan so'rovnoma savollariga berilgan javoblarni (15%) o'zaro taqqoslash qator xulosalar chiqarishga olib keldi: pedagogik amaliyotda o'qituvchilarning ijodiy ishlarini tashkil etish bilan o'qituvchilarning ijodiy ish xususidagi tasavvurlari bir-biriga juda yaqin: $\approx 13,8\%$ va 15% . Bu ta'limda ijodiy ishlarni tashkil qilish metodikasining asta-sekin bo'lsa-da, o'qituvchilar faoliyatidan o'rin olayotganidan dalolat beradi; didaktikada, shuningdek, ona tili metodikasida ham o'qituvchilar fikrlashi (tafakkuri)dan boshlangan o'quv topshirig'i xotiraga mo'ljallangan ish bilan va, aksincha, xotiraga asoslangan o'quv topshirig'idan boshlangan ta'lim ijodiy ish bilan yakunlanishi lozim. Bu ijodiy va noijodiy ishlar nisbatini $50\%-50\%$ ko'rinishida belgilash imkoniyatini beradi. Ijodiy va noijodiy ishlarni bunday nisbat ($50\%-50\%$)da tashkil etish ta'limning samaradorligini oshiradi. Maktab o'qituvchilarining faoliyatini bu darajaga ko'tarishning qator qiyinchiliklari mavjud. Ta'limni ijodiy tashkil etishda o'qituvchilar faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni to'rt guruhga ajratib o'rganish mumkin.

1-guruh: ta'limni ijodiy tashkil etishning maqsadi hamda vazifalariga oid qiyinchiliklar. Bu guruhga o'qituvchilar va o'qituvchilarning o'quv topshiriqlari maqsadini ajrata olmasliklari, o'quv topshiriqlari ta'lim jarayonining didaktik maqsadlariga mos kelmasligi, o'quv topshiriqlari bilan o'quv materialini o'qitish maqsadi o'rtasidagi nomuvofiqlik, o'quv topshiriqlarida ta'limning taraqqiy ettiruvchanlik va tarbiyaviy maqsadlarini qamrab ola bilmaslik kabi qiyinchiliklar kiradi.

2-guruh: ta'limni ijodiy loyihalash bilan bog'liq qiyinchiliklar. Bunday qiyinchiliklar sirasiga o'quv materialini mazmunini ijodiy ishlar tizimiga aylantirish texnologiyasini bilmaslik, aynan olingan ijodiy ishning o'quv topshiriqlari tizimidagi o'rnini aniqlay olmaslik, til ta'limi sharoitida noijodiy va ijodiy ishlarni optimal qo'shib o'tkazish metodikasini tushunmaslik, tanlangan o'quv topshiriqlarining o'quv materialini o'zlashtirish logikasiga mos kelmasligi.

3-guruh: ona tili ta'limi mazmunini ta'lim jarayoni xususiyatlariga muvofiqlashtirishga oid qiyinchiliklar. Bunday pedagogik, metodik qiyinchiliklar sirasiga o'quv ishlarining dars turi, dars bosqichlariga mos kelmasligi, ta'limga tatbiq qilingan o'quv topshiriqlarining barcha funksiyalarini kompleks amalga oshira olmaslik, ijodiy topshiriqlarni bajarishda o'qituvchilarning yosh, individual xususiyatlari, real o'quv imkoniyatlarini aniq o'rganmaslik, ta'lim jarayonining

barcha bosqich, davrlarida ijodiy topshiriqlardan unumli foydalanmaslik kabi holatlarni o'z ichiga oladi.

4-guruh: ta'lim natijalarini ob'ektiv qayd etish va baholashga doir qiyinchiliklar. Bunday qiyinchiliklar qatoriga ta'limdan kutilgan natijani nazorat qilishga oid maqsadlar tizimi metodik jihatdan ishlab chiqilmaganligi, ta'lim natijalarini qayd etishda an'anaviy va yangi usullar (reyting nazorati, test sinov)idan foydalanish yo'llari tajribada o'rganilmaganligini ko'rsatadi.

Bir guruhda an'anaviy metodika asosida, ikkinchisida ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish vositasidan foydalanib dars o'tib, kelgusi darsda o'quvchilarning oldingi dars bo'yicha olgan bilimlari tekshirilganda tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lganligi aniqlandi. Kuzatishlar, nazorat ishlarining natijalari, o'qituvchi va o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida ona tili darslarini pedagogik va metodik jihatdan asoslangan loyihalar zahirida tashkil qilganda o'quvchilar bilim saviyasini oshirish mumkin degan fikrga keldik.

O'quvchi va o'quv materialining o'zaro ta'siri yaxlit tizim sifatida o'qish faoliyatidan ham, o'quv materialidan ham keng, mazmundor hodisadir. U ikki tomonlama jarayon bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra ham o'quv faoliyati, ham o'quv materiali jihatidan tahlilni taqozo etadi.

O'zaro ta'sirni o'qish faoliyati nuqtai nazaridan ta'lil qilish uning o'ziga xos maqsad, vosita natijalarini aniqlash, ajratish imkoniyatini beradi. Shu yo'l bilan qayd etiladigan didaktik bilimlar o'qish faoliyatining jarayoniy tavsifi sanaladi. O'quvchi va o'quv materialining o'zaro ta'siri harakatida uch xil bosqich ajratiladi. Dastlabki bosqich — oldin o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malaka, hayotiy tajriba, narsa-hodisalar bilan muomala qilish yo'llarini faollashtirish. Boshlang'ich sinflarda bilim, faoliyat usuli, hayotiy tajribalarni faollashtirish bolaning o'quv materialini o'rganishga kirishuvidayoq ta'limda ijod elementlaridan foydalanishni, binobarin, tafakkurini ishga tushirishni ta'minlaydi. O'quv predmetlarining har birida bolalarni faollashtirishning o'ziga xos vositalari mavjud: a) ona tilida — o'rganilayotgan mavzuga oid faktlarni bolalarning esiga tushirish; mavzuga oid faktlarni matndan ajratib yozish; o'tilgan va yangi mavzuga oid faktlarni o'zaro chog'ishtirish va sh.k.; b) yil fasllarining o'ziga xos xususiyatlarini esga tushirib aytib berish; disparat — bir-birini taqozo etadigan ziddiyatli hodisalarni o'zaro chog'ishtirish (mas., qish va yoz); bolalarning hayotiy tajribalaridan kelib chiqib muammolar qo'yish, topshiriqlarni bajaritirish.

Dastlabki bosqichda bajariladigan intellektual, amaliy ishlarining asosiy maqsadi o'quvchini ta'lim sub'ektiga aylantirishdan iborat. Shu bilan birga, bunday ishlar bolalarni faol ta'limga tayyorlaydi, ta'limning boshlanishidanoq tafakkurni ishga tushiradi, motiv va emotsiyalarning, bilish e'tiyotlarining shakllanishiga olib keladi, bola o'z faoliyatining yangi hodisa bilan to'qnashganini anglaydi, u mustaqil fikrlay boshlaydi. Mustaqil fikrlash o'z faoliyatini ishga tushirish va ijodiy faoliyat o'rtasidagi determinik — sababiyatli bog'lanishlarning amal qilishini ta'minlaydi. Zotan, "tafakkur ob'ektni ongda faol tiklash akti bo'lib, u sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'siri jarayoni shaklida amal qiladi" [3. B.177]. Bilish jarayonidagi oldingi bosqichning yakunlanishi navbatdagi bosqichning boshlanishiga olib keladi. O'quv materiallarini o'rganish boshlangan paytdanoq bolalarni ijodiy fikrlashga yo'llash ta'limning narsa-hodisalar o'rtasidagi sababiyatli bog'lanishlarni ajratish, ta'lil qilish shaklini olishini ta'minlaydi. O'rganilayotgan ob'ekt va uning ongda tasviri o'rtasidagi bog'lanishlarni qayd etish, bog'lanishlarning dastlabki ta'lili bola bilishida determinik — sababiyatli zanjirning boshlang'ich nuqtasi sanaladi.

O'rta bosqich — bu o'zaro ta'sirning ikki nuqta — uning boshlanish va yakunlanish nuqtalari o'rtasidagi arakatidir. O'quvchi xatti-harakatining o'quv materialiga yo'nalishi, bunday harakatning samaradorligi dastlabki bosqichda erishilgan natijalarga — faollashtirilgan bilim, faoliyat usullari hayotiy tajribalarga ko'p jihatdan bog'liq. Agar o'quvchi dastlabki bosqichda qo'yilgan muammoni, yangi bilimlarni o'rganish zarurligini anglasa, o'rta bosqichda muammoni bajarish yo'li, bilimlarni o'rganish vositalarini tanlaydi. U yoki bu usulni, vositani tanlash bola tafakkurining evristiklik — topqirlik layoqatiga ham bog'liq. Bolalarga alternativ fikrlash

yo'llarini, juda ko'p vositalar orasidan eng zarurini tanlashni o'rgatish tafakkurning topqirlik layoqatini tarbiyalash omillaridan sanaladi.

O'rta bosqichda o'quvchining ta'lim sub'ekti mavqeini davom ettirish verbal ta'limni chegaralashni taqozo etadi. Shu maqsadda dialogdan foydalanish, muammoli savollarni o'rta tashlash, muammo va topshiriqlarni bajartirish kabi usul, vositalardan foydalaniladi, bolalar diqqati o'quv materialini mustaqil talil etishga, mavzuga doir faktlarni o'zaro chog'ishtirish, ajratishga tortiladi. Shu yo'l bilan subekt va obekt munosabati ishlay boshlaydi.

So'nggi bosqich — muammolarning qo'yilishi, topshiriqlarning bajarilishi, dialogda ishtirok etishdan qayd qilingan bilimlar, chiqarilgan xulosalardir. An'anaviy talim tizimida bolalarning bilimini nazorat qilish o'zlashtirishning davomi sifatida tashkil etiladi. Ijodiy talimda natija bilish jarayonidan ajratilishi lozim. Natijani bilish jarayonidan ajratish o'quvchilar faoliyatini ilmiy ish bilan mashg'ul olimlar faoliyatiga yaqinlashtirib tashkil etish, bolalarda mustaqil ishlash, fikrlash qobiliyatlarini o'stirish hamda tarbiyalashga keng imkoniyatlar yaratadi. O'zaro tasirni o'quv materialini nuqtai nazaridan sistem tahlil qilish, o'zlashtirish jarayonining quyidagicha holatlarini qayd etish imkoniyatini beradi.

Fiziologik nuqtai nazar. Bu boshlang'ich nuqta bo'lib, u o'quvchining o'rganilayotgan obekt — o'quv materialini bilan to'qnashuviga to'g'ri keladi. To'qnashuv orqali bola shunday o'quv materialini mavjudligi, uni o'zlashtirish zarurligini anglaydi. Fiziologik jihatdan o'quvchi uchun, asosan, ikki xil vosita mavjud: oldingi bilim, hayotiy tajribani faollashtirish; narsalar yoki ularning belgilari — yozuv bilan muomala qilish.

Psixologik nuqtai nazar. Bu o'zaro tasirning boshlanish va yakunlanish nuqtalari o'rtasidagi masofa. Hozirgi an'anaviy talim amaliyotida shu masofa o'ta qisqartiriladi (bu hodisani yangi mavzu xat taxtaga yozilgach, o'qituvchi tomonidan zudlik bilan izohlashda ko'ramiz). Aslida esa ijodiy faoliyat, uning yadrosi — ijodiy tafakkur shu bosqichda amal qila boshlaydi. Ana shu tufayli o'quv materialini psixologik tahlil qilish nisbatan uzoq muddatda o'tkazilishi lozim. Zero, o'quvchilar o'quv materialini mohiyatini psixologik tahlil jarayonida tushunadilar. Agar fiziologik nuqtai nazardan bola mavzuni tinglasa, psixologik jihatdan uni tushunadi. Bu erda ham ikki xil vosita ajratiladi: narsa — belgilar bilan muomala qilish; bilishning psixologik mexanizmlari — analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish va sh.k.

Metodik nuqtai nazar. Topshiriq, muammolarni bajarish, savollarga javob izlash yo'li bilan bilimlarni qayd etish, erishilgan natijani talil qilish. Didaktik nuqtai nazardan ham ijodiy talimda ikki xil vosita ajratiladi: muammo yoki topshiriqni shakllantirishda ishlatilgan tushunchalar vositasida faoliyat ko'rsatish; mantiqiy usullar — taqqoslash, induktiv yoki deduktiv xulosa chiqarish. Metodik nuqtai nazardan muammo, topshiriqlarni bajarishda mantiqiylik ustun turadi. O'quvchilar ijodkorligini tarbiyalash o'zaro ta'sir aspektlarini, uning qanday bosqich, vositalar asosida amal qilishini bilishni mutlaqo zaruriyat qilib qo'yadi. Ta'lim jarayonida bolalar ijodkorligi muammo, topshiriqlarni anglash va tushunishdan xulosalar chiqarishga, chiqarilgan xulosalarni yana amaliyotda sinab ko'rishga qarab boradi.

Yuqorida bayon qilingan konsepsiyaga muvofiq ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilishda uch asosiy yo'nalishni ajratamiz: birinchi yo'nalish — ta'lim sub'ektlari — o'qituvchi va o'quvchilarning "loyihaviy ta'lim"ni amalga oshirishga oid ishlarni qamrab oladi. O'qituvchi va o'quvchilarning loyihaviy ta'lim haqidagi tasavvurlarini shakllantirmasdan turib, ta'limning samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi. Ikkinchi yo'nalish ta'lim mazmuniga, ayni holatda ona tili o'quv predmeti mazmuniga pedagogik ishlov berish va loyihalash jarayoni bilan daxldor. Bu yo'nalishga ko'ra loyihalash vositasida ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish prinsip, vosita, metodlarini o'rganishni qayd etamiz. Uchinchi yo'nalish "ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish ta'limning eng samarali vositasi" deb qarash bilan bog'liq tasavvurlardir. Shu tasavvur bo'yicha o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish o'quv ishlarining sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirish shart-sharoitlarini o'rganishni tushunamiz. Qayd qilingan yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish, shubhasiz, ona tilini o'qitishni loyihalashtirishning nazariy asoslarini bayon qilishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

303

1. SH.M. FARMONOVA. Improvement of Professional Thinking in Future Teachers // International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. 7. 05. – p. 251-257.
2. Shabon Farmonova.
3. Kamroev A. STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 7. – S. 285-296.
4. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // Ilmiy xabarnoma. – S. 69.
5. Azimov Y. Hamroyev A. // Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari). – 2003.
6. Xamraev A. Modelirovanie deyatel'nosti uchitelya pri proektirovanii tvorcheskoy deyatel'nosti uchashchixsya // Pedagogicheskii innovatsii: idei, realii, perspektivi. – 2018. – №. 2. – S. 23-26.
7. Kamroev A. STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 7. – S. 285-296.
8. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // Ilmiy xabarnoma. – S. 69.
9. Azimov Y. Hamroyev A. // Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari). – 2003.